

**BOSHLANG'ICH SINF TEKNOLOGIYA DARSLARIDA TABIIY VA TURLI  
MATERIALLAR BILAN ISHLASH JARAYONLARI**

**Tilavova Matlab Muhammedovna**

*Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lif metodikasi kafedrasini dotsenti*

**Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistarnti*

**Annotatsiya:** Miliy o'quv dasturi asosida yaratilgan yangi avlod darsliklari bugungi davr talabidagi kadrlar tayyorlash uchun dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada texnologiya darslarida tabiiy va turli materiallar bilan ishlash uslublari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiiy material, turli material, metod, aplekatsiya, plastilik, andoza, mozaika.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy, madaniy o'zgarishlar ishlab chiqarishdagi mehnat jarayoniga ham ta'sir etmoqda. Bu jarayonda mehnat tarbiyasining maqsadi, vazifalari mazmuni, yoshlarni kelajakda o'z kasbining mohir ustasi bo'lib voyaga yetishishda mehnat ta'limi va tarbiyasi tizimining yangilanishini taqozo etadi. Bu esa ishlab chiqarish munosabatlarida uzlucksiz ta'lim va tarbiya muassalari jumladan umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarida xususan boshlang'ich sinflarda olib boriladigan mehnat ta'limi va tarbiyasi jarayonida turli ishlardan foydalanib puxta bilim egallashni taqozo etadi.

Texnologiya darslarida turli materiallar bilan ishlash darslarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yaadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarining usullari bo'lib, bular yordamida o'qituvchi o'quvchilarini bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, hatti-harakati darsda o'quvchilarining diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shunga o'rgatish kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligigi ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, ularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin.

O'z faoliyatini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulotlar kabilardan foydalanib o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganini mustahkamlashni eng boshidan

o'rganishlari lozim. Faqat barchaga ma'lum haqiqatlar o'zlashtirgandan keyingina va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin.

Mehnat ta'limi bilimlarini egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq.

Texnologiyani amaliy mehnat faoliyati bilan birlashtirish va o'quvchilarning ilmiy bilimlarini chuqur o'zlashtirishini ta'minlashda ta'limning turli usullaridan foydalilaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarning bilimlari va tajribasiga suyanadi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha mehnatga oid harakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi.

Boshlang'ich sinflarda ish materiallarining mazmuni, hajmi va usullari o'quvchilarning amaliy ishga tayyorgarlik bosqichiga mos kelishi zarur. O'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishda faqat soddalashtirish yo'li bilan borish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bunday yo'l bilan borish o'quvchilarning aqliy rivojlanishi ta'minlay olmaydi. Har bir mavzuni o'rganishda soddadan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda turli materiallari bilan ishslashga o'rgatishda quyidagi ish turlariga bo'linadi.

Turli materiallar bilan ishslash.

- a) Applikatsiya va mozayka ishlari.
- b) Loy va plastilin bilan ishslash.
- v) Turli materiallar bilan ishslash
- g) Tabiiy materiallar bilan ishslash

Turli materiallar bilan ishslashga o'rgatish o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashga xizmat qilib, ularni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, ahloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Texnologiya darslarida o'quvchilar turli materiallar bilan ishslash haqida maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarni egallaydilar, borlqnini va tabiatni estetik jihatdan idrok etishni o'rganadilar va bu ularning fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurini rivojlantiradi, ijodiy qobiliyatini o'stirishga, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.

Boshlang'ich sinflarda turli materiallari bilan ishslash texnologiya fanining vazifalari qatoriga quyidagi vazifalarini kiritish mumkin:

- o'quvchilarni tabiatdagi, tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ulardagi go'zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda shu his va tushunchalarni hayotga tadbiq etishga o'rgatish;
- tabiatga nisbatan estetik va emotsiyonal sezgirlikni o'stirish;
- muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ko'rib-idrok qilishni, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fazoviy fikrlashni, fantaziyani, ko'rish orqali tasavvur qilish va kombinatsiyalash, ijodiy vazifalarini aniq obrazlarga hal qilishni rivojlantirish;
- turli materiallar bilan ishslashning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;

- ularda tabiatga nisbatan emotsiyonal idrok, ijodiy qobiliyat, did, tasavvurni o'stirishga qaratish;
  - turli turli materiallardan turli o'yinchoqlar va ko'rgazmalar yasashga o'rgatish;
  - turli materiallar asosida turli o'yinchoqlar va ko'rgazmalar yasashda ijodiy texnik malakalarini rivojlantirish.
- Turli materiallar bilan ishslash mashg'ulotlarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda estetik, badiiy va ijodiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya - bu o'quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi kishilarning munosabatlaridagi go'zallikni to'liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalash va go'zallik qonunlari asosida ijod etishni o'stirishdir. Zotan go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir qilib, ma'naviy dunyosini boyitadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tilanova, M., & Erkinova, N. (2022). O 'QUVCHILARINI MA'NAVIY BARKAMOL INSON RUHIDA TARBIYALASHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH. Science and innovation, 1(B4), 130-131.
2. Tilanova, M., & Erkinova, N. (2022). OQUVCHILAR NUTQINI OSTIRISHDA SHE'RIY MATNLARDAN FOYDALANISH. Science and innovation, 1(B4), 127-129.
3. Tilanova, M. M., & Alimova, M. A. Q. (2021). TEKNOLOGIYA DARSLARIDA QO 'L MEHNATIDAN FOYDALANISH TALABLARI. Scientific progress, 2(7), 975-982.
4. Mukhamadovna, T. M. (2021). Challenges of Feminism and Gender Equalization. Middle European Scientific Bulletin, 10.
5. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. Middle European Scientific Bulletin, 11.
6. Muhammedovna, T. M. (2019). Qualification features of the teacher of "technology" and the technology of its development. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
7. Тиларова, М. М. (2020). Гендерный подход на уроках технологии. In European research: innovation in science, education and technology (pp. 33-35).
8. YARASHOV M. BOSHLANG 'ICH SINF MATEMATIKA TA'LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHDA TA'LIM TAMOYILLARINING O 'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Jobirovich, Yarashov Mardon. "Advantages of the Introduction of Digital Technologies into the Educational Process." Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 7 (2021): 17-20.
10. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 461-465.

11. Ярашов М. THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGY IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS EDUCATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 10. – №. 9.
12. Ярашов М. TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
13. Ярашов М. BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA TA'LIMNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI IJODIY TASHKIL ETISH JARAYONI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
14. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.
15. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.